2026-yil
8-son

FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
8-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

UDK 372.881.111.1

Abdullayeva Munojot Muxtorovna,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
“O‘zbek tili va xorijiy tillar” kafedrasi dotsenti, PhD

BOSHLANG‘ICH INGLIZ TILI TA’LIMIDA KOMMUNIKATIV FAOLIYATNING IJTIMOIY-HISSIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDAGI PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitish jarayonida kommunikativ faoliyatning ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tavsiflovchi-tahliliy metod asosida faol tinglash, fikr almashish, dialog, guruhda ishlash, mojaroni muhokama qilish, rolli o‘yin, fikrni asoslash hamda qayta aloqa berish va qabul qilish kabi kommunikativ faoliyat elementlarining empatiya, o‘zini anglash, munosabatlar ko‘nikmalari, hamkorlik, o‘zini boshqarish, mas’uliyatli qaror qabul qilish va refleksiya bilan bog‘liqligi CASEL modeli asosida yoritiladi. Kommunikativ va ijtimoiy-hissiy rivojlanish parallel emas, balki o‘zaro ta'sirlashuvchi jarayonlar sifatida talqin qilinib, ularni yagona integrativ ta’lim tizimida rivojlantirish zarurati asoslanadi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-hissiy ta’lim (IHT), kommunikativ faoliyat, ijtimoiy-hissiy kompetensiya, boshlang‘ich ta’lim, ingliz tili, faol tinglash, empatiya, hamkorlik, o‘zini boshqarish, refleksiya, integrativ rivojlanish.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ КОММУНИКАТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАЗВИТИИ СОЦИАЛЬНО-ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. В статье анализируются педагогические возможности коммуникативной деятельности в развитии социально-эмоциональных компетенций учащихся начальных классов в процессе обучения английскому языку. На основе описательно-аналитического метода и модели CASEL рассматривается связь таких элементов коммуникативной деятельности, как активное слушание, обмен мнениями, диалог, групповая работа, обсуждение конфликтных ситуаций, ролевая игра, аргументация и обратная связь, с эмпатией, самосознанием, навыками выстраивания отношений, сотрудничеством, саморегуляцией, ответственным принятием решений и рефлексией. Коммуникативное и социально-эмоциональное развитие трактуются не как параллельные, а как взаимообусловленные процессы, что обосновывает необходимость их развития в рамках единой интегративной образовательной системы.

Ключевые слова: социально-эмоциональное обучение (СЭО), коммуникативная деятельность, социально-эмоциональная компетенция, начальное образование, английский язык, активное слушание, эмпатия, сотрудничество, саморегуляция, рефлексия, интегративное развитие.

PEDAGOGICAL POTENTIAL OF COMMUNICATIVE ACTIVITY IN DEVELOPING SOCIAL-EMOTIONAL COMPETENCIES IN PRIMARY ENGLISH LANGUAGE TEACHING

Abstract. This article examines the pedagogical potential of communicative activity in developing the social-emotional competencies of primary school learners in the process of teaching English. Using a descriptive-analytical method grounded in the CASEL framework, the study addresses the relationship between elements of communicative activity, active listening, sharing opinions, dialogue, group work, conflict discussion, role play, reasoning, and giving and receiving feedback and empathy, self-awareness, relationship skills, collaboration, self-management, responsible decision-making, and reflection. Communicative and social-emotional development are interpreted not as parallel but as mutually reinforcing processes, which substantiates the need to develop them within a single integrative educational system.

Keywords: social-emotional learning (SEL), communicative activity, social-emotional competence, primary education, English language, active listening, empathy, collaboration, self-management, reflection, integrative development.

Kirish. Boshlang‘ich maktab yoshida kommunikativ va ijtimoiy-hissiy rivojlanishni bir-biridan mustaqil kechadigan jarayonlar sifatida qarash maqsadga muvofiq emas. Bola muloqot jarayonida nafaqat axborot almashadi, balki o‘z hissiyotlarini ifodalaydi, boshqalarning hissiy holatini anglaydi, ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradi hamda o‘z xulq-atvorini muayyan vaziyat talablariga moslashtiradi. Shu jihatdan nutq fikrni ifodalash vositasi bo‘lish bilan birga, bilish faoliyatini tashkil etish, emotsiyalarni namoyon qilish va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi [1].

Kommunikativ faoliyat jarayonida o‘quvchi bir vaqtning o‘zida bir nechta psixologik vazifalarni bajaradi: suhbatdoshining fikrini tinglaydi va tushunishga intiladi, o‘z fikrini mantiqiy hamda izchil ifodalaydi, suhbatdoshining emotsional holatini kuzatadi, o‘z hissiyotlarini boshqaradi, muloqot jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etadi va hamkorlikni davom ettirish uchun mos kommunikativ strategiyalarni tanlaydi. Demak, muloqot jarayonining o‘zi til ko‘nikmalari bilan bir qatorda ijtimoiy-hissiy ko‘nikmalarni ham faollashtiradigan murakkab faoliyat turi sifatida namoyon bo‘ladi [1].

Muammoning dolzarbligi shundan iboratki, an’anaviy metodik yondashuvlarda kommunikativ kompetensiya ko‘pincha lingvistik va nutqiy ko‘rsatkichlar asosida

baholanadi, ijtimoiy-hissiy tarkibiy qism esa ta'lim jarayonidan nisbatan alohida hodisa sifatida talqin qilinadi. Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tilida muloqotga kirishishida hissiy va ijtimoiy omillarning, xususan, xijolat, xato qilishdan qo'rqish va o'ziga nisbatan ishonchsizlik kabi holatlarning muhim rolini metodik jihatdan yetarli darajada hisobga olmaydi.

Tadqiqotning maqsadi — taqdim etilgan nazariy materiallar hamda CASEL modeli asosida boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitish jarayonida kommunikativ faoliyat elementlari bilan ijtimoiy-hissiy kompetensiyalar o'rtasidagi funksional bog'lanishni tahlil qilish, mazkur bog'lanishning ikki tomonlama xususiyatini yoritish hamda ularni integrativ rivojlantirishga doir pedagogik xulosalarni shakllantirishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot tavsiflovchi-tahliliy (descriptive-analytical) metodga asoslanadi. Tadqiqotning nazariy-metodologik bazasini kommunikativ yondashuv nazariyasi, xususan, Canale va Swain tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ kompetensiya konsepsiyasi [1], ijtimoiy-hissiy ta'limga oid CASEL freymvorki [2; 3], shuningdek, kommunikativ kompetensiya, chet tilini o'rganish hamda boshlang'ich ta'lim jarayonining psixologik-pedagogik asoslariga bag'ishlangan ilmiy manbalar [4; 5; 6] tashkil etdi. Mazkur manbalar mazmuniy va konseptual jihatdan tahlil qilinib, kommunikativ faoliyat hamda ijtimoiy-hissiy kompetensiyalar o'rtasidagi nazariy bog'liqlikni aniqlashga yo'naltirildi.

Tadqiqotda asosiy metod sifatida kontseptual tahlildan foydalanildi. Ushbu metod orqali kommunikativ faoliyatning boshlang'ich sinf o'quvchilarining nafaqat til va nutqiy rivojlanishiga, balki ularning o'z hissiyotlarini anglash va boshqarish, boshqalarning hissiy holatini tushunish, ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish hamda vaziyatga mos qarorlar qabul qilish ko'nikmalariga ta'siri nazariy jihatdan o'rganildi. Bunda kommunikativ topshiriqlarning tashqi nutqiy shakli bilan bir qatorda, ularni bajarish jarayonida faollashadigan psixologik va ijtimoiy-hissiy mexanizmlarga ham e'tibor qaratildi.

Tahlil jarayoni ikki asosiy bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda boshlang'ich sinf ingliz tili darslarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan asosiy kommunikativ faoliyat elementlari ajratib olindi. Ular qatoriga faol tinglash, fikr almashish, dialogga kirishish, juftlik va guruhda ishlash, turli nuqtayi nazarlarni muhokama qilish, nizoli yoki muammoli vaziyatlarni muhokama qilish, rolli o'yinlar, fikrni asoslash, savol-javob, o'zaro baholash va qayta aloqa berish kabi faoliyat turlari kiritildi. Mazkur elementlar o'quvchining real yoki modellashtirilgan muloqot vaziyatida til vositalaridan foydalanishi bilan birga, turli ijtimoiy va hissiy vazifalarni bajarishini ta'minlashi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqildi.

Ikkinchi bosqichda aniqlangan kommunikativ faoliyat elementlari CASEL modelining beshta asosiy kompetensiyasi — o'z-o'zini anglash (self-awareness), o'zini boshqarish (self-management), ijtimoiy ong (social awareness), munosabatlarni boshqarish ko'nikmalari (relationship skills) va mas'uliyatli qaror qabul qilish (responsible decision-making) bilan nazariy jihatdan solishtirildi [2; 3].

Har bir kommunikativ faoliyatning qaysi ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni faollashtirishi, ushbu kompetensiyalarning muloqot jarayonida qanday namoyon bo‘lishi va ularning kommunikativ natijaga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilindi.

Olingan natijalar o‘zaro moslik tamoyili asosida tizimlashtirilib, kommunikativ faoliyat elementlari va CASEL kompetensiyalari o‘rtasidagi funksional bog‘lanish moslik jadvali ko‘rinishida ifodalandi. Bunda bir kommunikativ faoliyat elementi bir vaqtning o‘zida bir nechta ijtimoiy-hissiy kompetensiyani rivojlantirishi mumkinligi hisobga olindi. Masalan, guruhda ishlash jarayonida o‘quvchi nafaqat ingliz tilida fikr almashadi, balki boshqalarning fikrini tinglash, o‘z hissiyotlarini nazorat qilish, hamkorlik qilish va umumiy qarorga kelish kabi ko‘nikmalarni ham namoyon etadi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi kommunikativ faoliyat va ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni ikki alohida yo‘nalish sifatida emas, balki boshlang‘ich sinf ingliz tili ta’limida o‘zaro bog‘liq holda rivojlanadigan jarayonlar sifatida tahlil qilishga imkon berdi. Ushbu yondashuv keyingi bosqichda kommunikativ topshiriqlarning ijtimoiy-hissiy rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash va ularni integrativ rivojlantirishga qaratilgan metodik xulosalarni shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Natijalar. Kommunikativ faoliyatning ijtimoiy-hissiy mazmunini yoritishda empatiya alohida o‘rin tutadi. Suhbatdoshning hissiy holatini anglash, uning nuqtayi nazarini tushunish va vaziyatga mos ravishda javob qaytarish samarali muloqotning muhim shartlaridan biridir. O‘quvchi faol tinglash ko‘nikmasiga ega bo‘lmasa, boshqalarning hissiyotlarini yetarli darajada anglamasa yoki o‘z emotsional holatini boshqara olmasa, grammatik jihatdan to‘g‘ri va mazmunan aniq tuzilgan nutqning o‘zi ham kommunikativ maqsadga to‘liq erishishni kafolatlamaydi. Shunday qilib, kommunikativ muvaffaqiyat nafaqat til va nutqiy kompetensiyaga, balki muloqot jarayonida ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarning namoyon bo‘lishiga ham bevosita bog‘liq [1].

Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitish mazkur o‘zaro bog‘liqlikni amaliy faoliyat orqali namoyon etish uchun qulay pedagogik imkoniyatlarni yaratadi. Xususan, juftlik va guruhda ishlash, dialoglar, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlarni muhokama qilish, loyiha faoliyati hamda hamkorlikka asoslangan topshiriqlar jarayonida o‘quvchilar ingliz tilidan amaliy foydalanish bilan bir qatorda bir qator ijtimoiy-hissiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradilar. Jumladan, suhbatdoshni faol tinglash, muloqot navbatiga rioya qilish, sherigining fikri va hissiyotlarini hurmat qilish, o‘z emotsiyalarini nazorat qilish, kelishmovchiliklarni konstruktiv yo‘l bilan hal etish, hamkorlik qilish va umumiy qarorga kelish kabi ko‘nikmalar kommunikativ faoliyatning tarkibiy qismiga aylanadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ faoliyat va ijtimoiy-hissiy ta’lim (IHT) komponentlari o‘rtasidagi bog‘liqlik bir tomonlama emas. Bir tomondan, ijtimoiy-hissiy ko‘nikmalar, xususan, o‘z-o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, empatiya, munosabatlarni samarali boshqarish va mas’uliyatli qaror

qabul qilish kommunikativ faoliyatning samaradorligini oshiradi. Ikkinchi tomondan, mazkur kompetensiyalarni rivojlantirish uchun tashkil etilgan kommunikativ topshiriqlarning o‘zi ham o‘quvchilarga ijtimoiy vaziyatlarda faol ishtirok etish, hissiyotlarni ifodalash va boshqarish, boshqalarning nuqtayi nazarini hisobga olish hamda hamkorlikda qaror qabul qilish imkonini beradi. Shu sababli kommunikativ faoliyatni ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni rivojlantirishning tabiiy pedagogik vositalaridan biri sifatida baholash mumkin.

Kommunikativ faoliyat va IHT komponentlarining o‘zaro funksional bog‘liqligi hamda ularning boshlang‘ich sinf ingliz tili ta’limidagi namoyon bo‘lish shakllari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

Kommunikativ faoliyat va IHT komponentlarining o‘zaro bog‘liqligi

Kommunikativ faoliyat elementi	**Rivojlanadigan IHT komponenti**
Faol tinglash	Empatiya, ijtimoiy ong (Social awareness)
Fikr almashish	O‘zini anglash (Self-awareness), o‘zini ifodalash
Dialog olib borish	Munosabatlar ko‘nikmalari (Relationship skills)
Guruhda ishlash	Hamkorlik, mas’uliyat
Mojaroni muhokama qilish	O‘zini boshqarish (Self-management), mas’uliyatli qaror qabul qilish
Rolli o‘yinlar	Empatiya, ijtimoiy moslashuv
Fikr bildirish va asoslash	O‘ziga ishonch, refleksiya
Qayta aloqa (feedback) berish va qabul qilish	Emotsiyalarni boshqarish, konstruktiv muloqot

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, kommunikativ faoliyatning turli elementlari CASEL modelining ijtimoiy-hissiy kompetensiyalari bilan o‘zaro uzviy bog‘langan. Xususan, faol tinglash empatiya va ijtimoiy ong bilan, fikr almashish o‘zini anglash va o‘z fikrini ifodalash bilan, dialog olib borish munosabatlarni rivojlantirish ko‘nikmalari bilan, guruhda ishlash hamkorlik va mas’uliyat bilan, muammoli yoki nizoli vaziyatlarni muhokama qilish esa o‘zini boshqarish va mas’uliyatli qaror qabul qilish bilan bevosita bog‘lanadi. Rolli o‘yinlar jarayonida empatiya, ijtimoiy moslashuv va boshqalarning nuqtayi nazarini tushunish ko‘nikmalari faollashsa, fikr bildirish va uni asoslash o‘ziga ishonch, o‘zini anglash va refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Qayta aloqa berish va uni qabul qilish jarayonida esa emotsional reaksiyalarni boshqarish, konstruktiv muloqot va o‘zaro hurmat kabi ko‘nikmalar namoyon bo‘ladi.

Faol tinglash oddiygina suhbatdosh nutqini eshitishdan iborat emas. U suhbat mazmunini anglash, suhbatdoshning hissiy holatini sezish, uning nuqtayi nazarini tushunish va javobni vaziyatga mos ravishda tashkil etishni talab qiladi. Shu sababli

faol tinglash nafaqat kommunikativ ko‘nikma, balki empatiya va ijtimoiy ongni rivojlantiruvchi muhim faoliyat turi sifatida ham namoyon bo‘ladi [2]. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun faol tinglashga asoslangan topshiriqlar suhbatdoshning fikrini bo‘lmasdan eshitish, uning hissiy holatiga e’tibor qaratish va mos javob berish odatini shakllantirishga yordam beradi.

Fikr almashish jarayonida o‘quvchi o‘z nuqtayi nazarini ifodalash bilan bir qatorda, o‘z fikri, hissiyoti va munosabatini anglash zaruratiga duch keladi. Bu jarayon self-awareness, ya’ni o‘zini anglash kompetensiyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, o‘quvchining o‘z fikrini aniq va ishonchli ifodalash qobiliyatini ham rivojlantiradi. Dialog olib borish esa o‘zaro navbatga rioya qilish, suhbatdoshning javob reaksiyasini hisobga olish, muloqot jarayonida moslashish va suhbatning izchilligini saqlashni talab etadi. Shu jihatdan dialog munosabatlarni rivojlantirish ko‘nikmalarini (relationship skills) amaliy jihatdan shakllantirish uchun samarali vosita hisoblanadi.

Guruhda ishlash jarayonida esa individual natijadan ko‘ra umumiy maqsadga erishish ustuvor ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar vazifalarni taqsimlash, bir-birining fikrini tinglash, o‘zaro yordam ko‘rsatish va umumiy qarorga kelish orqali hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bunday faoliyat o‘quvchidan nafaqat o‘z vazifasini bajarishni, balki guruh oldidagi mas’uliyatni his qilishni ham talab etadi. Shu sababli guruh faoliyati relationship skills hamda responsible decision-making kompetensiyalarining rivojlanishiga xizmat qiladi [2].

Muammoli yoki nizoli vaziyatlarni muhokama qilish kommunikativ va ijtimoiy-hissiy kompetensiyalar integratsiyasining yana bir muhim ko‘rinishidir. Bunday vaziyatlarda o‘quvchi o‘z hissiyotlarini nazorat qilishi, boshqa ishtirokchilarning fikrini tinglashi, o‘z pozitsiyasini asosli va hurmat bilan ifodalashi hamda vaziyat uchun maqbul yechimni tanlashi kerak. Natijada self-management va responsible decision-making kompetensiyalari kommunikativ faoliyatning bevosita tarkibiy qismiga aylanadi. Masalan, kelishmovchilikni muhokama qilishga yo‘naltirilgan ingliz tili topshirig‘ida o‘quvchi bir vaqtning o‘zida til birliklaridan foydalanish, hissiy reaksiyasini boshqarish va suhbatdoshining pozitsiyasini hisobga olishni o‘rganadi.

Xuddi shuningdek, qayta aloqa berish va uni qabul qilish ham kommunikativ hamda ijtimoiy-hissiy rivojlanishning kesishgan nuqtalaridan biridir. O‘quvchi o‘z fikrini boshqalarga yetkazishda muloyim va konstruktiv ifodalardan foydalanishi, boshqalarning fikr-mulohazalarini esa shaxsiy tanqid sifatida emas, rivojlanish imkoniyati sifatida qabul qilishi muhim. Bu jarayonda emotsional reaksiyalarni boshqarish, o‘zaro hurmatni saqlash va konstruktiv muloqot olib borish ko‘nikmalari shakllanadi [2].

Taqdim etilgan nazariy materiallar asosida CASEL modelining beshta komponenti kommunikativ faoliyat mazmunini tizimlashtirish uchun samarali konseptual asos bo‘lib xizmat qilishi aniqlandi. Jumladan, faol tinglash va empatiya ijtimoiy ong (social awareness) bilan, guruhdagi hamkorlik munosabatlarni

boshqarish ko‘nikmalari (relationship skills) bilan, o‘z hissiyotlarini nazorat qilish o‘zini boshqarish (self-management) bilan, o‘z fikri va hissiy holatini anglash o‘zini anglash (self-awareness) bilan, muammoli vaziyatlarda maqbul yechimni tanlash va fikrni asoslash esa mas’uliyatli qaror qabul qilish (responsible decision-making) bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi [3].

Shunday qilib, kommunikativ faoliyat elementlari va CASEL kompetensiyalari o‘rtasidagi bog‘liqlik ularning parallel emas, balki o‘zaro ta’sirda rivojlanishini ko‘rsatadi. Ingliz tili darslarida kommunikativ topshiriqlarni maqsadli tashkil etish orqali til kompetensiyasi bilan bir qatorda o‘quvchilarning ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarini ham izchil rivojlantirish mumkin.

Muhokama. Kommunikativ va ijtimoiy-hissiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik bir tomonlama emas, balki ikki tomonlama xarakterga ega. Bir tomondan, kommunikativ faoliyat ijtimoiy-hissiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun tabiiy sharoit yaratadi. Ikkinchi tomondan, shakllangan ijtimoiy-hissiy kompetensiyalar kommunikativ faoliyatning samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘z hissiyotlarini boshqara oladigan, o‘ziga ishongan va empatiya namoyon eta oladigan o‘quvchilar chet tilida muloqot qilish jarayonida faolroq ishtirok etishi, kommunikativ tashabbus ko‘rsatishi va xato qilishdan nisbatan kamroq qo‘rqishi mumkin. Aksincha, emotsional zo‘riqish, ijtimoiy xavotir va o‘ziga ishonchsizlik kommunikativ faollikni pasaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi [1].

Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich sinflarda ingliz tili darslarida emotsional jihatdan xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratish kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. O‘quvchi o‘z fikrini erkin bildira oladigan, xato qilishdan ortiqcha qo‘rqmaydigan va tengdoshlari bilan hamkorlik qila oladigan muhitda kommunikativ faoliyatga faolroq jalb etiladi. Bunday muhit, ayniqsa, boshlang‘ich yoshdagi o‘quvchilarning chet tilida gapirishga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash va muloqotdagi psixologik to‘siqlarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Taqdim etilgan mualliflik konsepsiyasiga ko‘ra, boshlang‘ich ta’limda ingliz tilidagi kommunikativ faoliyat nafaqat kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish vositasi, balki ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi psixologik-pedagogik mexanizm sifatida ham qaraladi. Bunda kommunikativ va ijtimoiy-hissiy kompetensiyalar bir-biridan alohida yo‘nalishlar sifatida emas, balki yagona integrativ ta’lim tizimi doirasida o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirilishi taklif etiladi [4].

Mazkur konsepsiyaning mantiqiy tuzilishi kommunikativ faoliyatdan boshlanib, faol tinglash orqali empatiyaga, fikr almashish orqali o‘zini anglashga, dialog orqali munosabatlar ko‘nikmalariga, hamkorlik orqali ijtimoiy mas’uliyatga, nizoli vaziyatlarni hal qilish orqali o‘zini boshqarishga va refleksiya orqali mas’uliyatli qaror qabul qilishga yo‘naladi. Ushbu komponentlarning o‘zaro ta’siri kommunikativ va ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarning integrativ rivojlanishiga olib keluvchi konseptual zanjir sifatida ifodalanadi [5].

Ushbu modelning pedagogik ahamiyati shundaki, u ingliz tili darsidagi kommunikativ topshiriqlarni faqat til materialini o‘zlashtirish va mashq qilish vositasi sifatida talqin etish doirasini kengaytiradi. Dialog, juftlik va guruh ishlari, rolli o‘yinlar, loyiha faoliyati hamda muammoli kommunikativ vaziyatlarning samaradorligi nafaqat o‘quvchining til vositalaridan qay darajada to‘g‘ri foydalanishi, balki uning sherigi bilan qanday munosabat o‘rnatishi, qanday tinglashi, o‘z fikrini qanday ifodalashi, kelishmovchiliklarni qanday boshqarishi va qarorlarni qanday qabul qilishi bilan ham belgilanadi. Demak, topshiriqning kommunikativ natijasi bilan uning ijtimoiy-hissiy natijasini bir-birini to‘ldiruvchi pedagogik ko‘rsatkichlar sifatida baholash mumkin [2; 5].

Xulosa. Taqdim etilgan materiallarning tahlili boshlang‘ich ingliz tili ta’limida kommunikativ faoliyat va ijtimoiy-hissiy rivojlanish o‘rtasida barqaror funksional bog‘lanish mavjudligini ko‘rsatadi. Kommunikativ faoliyat o‘quvchidan faqat til vositalaridan foydalanishni emas, balki faol tinglash, suhbatdoshni anglash, hissiyotlarni boshqarish, hamkorlik qilish, kelishmovchiliklarni konstruktiv hal etish va refleksiya kabi ko‘nikmalarni ham talab qiladi. Shu sababli kommunikativ va ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni parallel ravishda shakllanadigan, biroq bir-biridan mustaqil bo‘lmagan, o‘zaro ta’sirlashuvchi komponentlar sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir [1; 2].

Boshlang‘ich ingliz tili darslarida dialog, rolli o‘yin, juftlik va guruh ishlari, loyiha faoliyati hamda muammoli kommunikativ vaziyatlardan foydalanish ushbu integratsiyani amaliy jihatdan ta’minlash imkonini beradi. Mazkur faoliyat turlarida til o‘rganish maqsadi bilan bir qatorda empatiya, hamkorlik, o‘zini boshqarish, ijtimoiy mas’uliyat va mas’uliyatli qaror qabul qilish kabi ijtimoiy-hissiy ko‘nikmalar ham faollashadi [2; 3].

Shunday qilib, kommunikativ faoliyat ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun tabiiy pedagogik muhit yaratadi, ijtimoiy-hissiy kompetensiyalar esa muloqotning samaradorligini qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu ikki yo‘nalishni yagona integrativ ta’lim tizimida tashkil etish keyingi metodik tizim, dars modeli, kommunikativ topshiriqlar va diagnostika vositalarini ishlab chiqish uchun konseptual poydevor bo‘lib xizmat qilishi mumkin [4; 5]. Keyingi tadqiqot bosqichi sifatida mazkur nazariy modelni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishtirokidagi empirik tadqiqotlar, jumladan, pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma va diagnostik testlar asosida tekshirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1, No. 1. – P. 1–47. DOI: 10.1093/applin/I.1.1.

2. Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning (CASEL). CASEL's SEL Framework: What Are the Core Competence Areas and Where Are They Promoted? – 2020.

3. Durlak J.A., Weissberg R.P., Dymnicki A.B., Taylor R.D., Schellinger K.B. The Impact of Enhancing Students' Social and Emotional Learning: A Meta-Analysis of School-Based Universal Interventions // Child Development. – 2011. – Vol. 82, No. 1. – P. 405–432. DOI: 10.1111/j.1467-8624.2010.01564.x.

4. Hymes D. On Communicative Competence // Sociolinguistics / J.B. Pride, J. Holmes (eds.). – Harmondsworth: Penguin, 1972. – P. 269–293.

5. Krashen S.D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon Press, 1982.

6. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes / ed. M. Cole et al. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
8-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694